



Mardiyeva Zarifa

Baxt...
manzili



821.512.133-1
84(5O')-5
U 26

U 26 Mardiyeva, Zarifa. Baxt manzili [Matn]: she'rlar / Zarifa, Mardiyeva – Toshkent: «Ijod Nashr» nashriyoti. 2024. – 64 b.

ISBN 978-9910-9069-1-6

Jizzax shahridagi Hamid olimjon va Zulfiya nomidagi ijod mактабида ко'плаб iqtidorli о'quvchilar tahsil olishadi. Zarifa Mardiyeva ham mazkur maktabning 11-sinf о'quvchisi. Qо'lingizdagi kitob uning ilk she'riy to'plами. Kitobda yosh ijodkorning qalb kechinmalari, sof insoniy tuyg'ular, mehr-muhabbat, hurmat va sadoqat singari qarashlar ohorli misralarda qalamga olingan.

Bo'lajak shoiraning keyingi ijodiy parvozлари yanada yuksak bo'lishiga, adabiyot ixlosmandлari ko'ngidan joy oladigan go'zal she'rlar yozishiga tilakdoshmiz.

ISBN 978-9910-9069-1-6

© Zarifa MARDIYEVA, 2024
© «IJOD NASHR», 2024

BAXT MANZILI

Osmonga tikilib o‘y surdim behol,
Angladim, vaqt mili bormoqda shoshib.
O‘n besh yil umrimni yashab qo‘yibman,
Bolalik ketmoqda mendan adashib.

Esimda, dadamning quchog‘ida payt
Xarxasha qilardim: “Meni urishdi”, deb.
Dadam erkalardi: “Asal qizginam,
O‘ynab kel mana bu shirinlikni yeb”.

Birgina singlimga yetardi kuchim,
Bor zahrimni sochib qiynardim uni.
Yoshlik sho‘xligiga yo‘yib hammasin,
Ba’zan kulishamiz eslab barini.

O, o‘n olti yoshim kutmoqda meni,
Yurakdan toshmoqda sevgi tobora.
Lekin qalbim xafa taqdir izmidan,
Bolalik tark etar, dil qilib pora.

2021-yil.

(Hamid Olimjon tilidan)

“Daryo kabi uyg‘oq o‘turman”,
 Izim o‘chmas yorug‘ jahondan.
 Qalamimning davomchilari
 Nomim kuylar madh etib jondan.

Har bahorning o‘rik gulida
 Rasmim chizar nafis tabiat.
 Shunday yoshlar menga davomchi,
 Qalbim sira chekmas aziyat.

“Vodiylarni yayov kezganda”
 Hislarimni jo qilur dilga.
 Odamlarga so‘zlab hikoya,
 Moziy tomon chiqadi yo‘lga.

Yurak topsa o‘z bahorini,
 She’r zavqiga ko‘madi o‘zni.
 Yuragiga ishq bo‘lib mehmon,
 Yomonlikka yumadi ko‘zni.

Qalbda hijron, qo‘lda soz ila
 Bizning kuyni etishar davom.
 Kuychi yurak urarkan toki,
 Barhayotdir “SHOIR” degan nom!

2021-yil.

BIZ...

(Shoir Iqbol Mirzo she'rlaridan ta'sirlanib)

“Novdalar kaftida titraydi yog‘du”,
Esimga solganday o‘tmish chog‘imni.
“Sen bilmasang kerak” unutganim yo‘q,
Sen-la birga qurgan so‘lim bog‘imni.
Yodimdan chiqmading, hattoki bir zum,
Senga bo‘lgan sevgim hamon kuchida.
Labimda ozgina tabassum bor, lek
“Yurak erir qabog‘im hovuchida”.
“Oqshom yulduzlar chaqnagan payti”,
Ko‘zim tushar doim yulduzimizga.
Menimcha, u bizdan xafa, Xudoyim,
Xohlamasdan boqar u yuzimizga.
“Qo‘ng‘irog‘ing kutib o‘tyapman” har kun,
“Hijronlarning qiyognog‘ini keyin bildim”.
O‘sha kecha tushlaringga kirgan chog‘im
“Keldim, ko‘rdim va mag‘lub bo‘ldim...”
Yo‘q-yo‘q, hali mag‘lub bo‘lganimcha yo‘q,
O‘zing ayt, sendan ham bo‘larmi kechib?
Manzilimni topib qaytmoqchi bo‘lsang,
Sendan iltimosim, qolma kechikib.
“Umrim chizgilari oddiy emasdир”,
Taqdirga ko‘nmay ham yo‘q ilojimiz.
Kun kelib yo‘limiz tutashar, balki,
Olis manzildagi oshiqlarmiz – BIZ!!!

2021-yil.

Olis manzil sari qo'yapman qadam,
Bilmayman, yo'limning oxiri nedur.
Yo'l yarimlab qolib bo'lsa falokat,
Achinmang, peshona qismatim shudir.

Ko'zlagan cho'qqimni zabit etsam, illo,
Havasda boqishar, hasadda kimdir.
Yaxshisi, shodlikni ko'raylik baham,
Kuyunmang, peshona qismatim shudir.

Manzilning yarmida chekinsam ortga,
To'g'ri deb o'ylagan qarorim budir.
Ulkan zafarlarni quchib qaytaman,
Olqishlang, qismatdan kutganim shudir.....

2022-yil.

OSMON – yetolmagan makonim o'sha,
ZUHRO – ushalmagan armonim o'sha.
KO'NGIL – tushunmagan hayronim o'sha,
ONA – kuyunchagim, sarsonim o'sha.
O'zin o'ylaydigan telba men asli,
HAYOT – yecholmagan jumbog'im o'sha.

2022-yil.



Novdalarni bezab qorparcha,
 Bahorda ham tinib-tinchimas.
 Tabiatni ko'rgan yuragim
 Qalam oldi, chidolmadi, bas...

Har kimning ham o'rni, ishi bor,
 Qish, tark ayla endi Vatanni.
 Sho'xliklaring yetib boshiga,
 Poymol qilding go'zal chamanni.

Qahratoning bezdirdi dilni,
 Moychechaklar qoldiku so'lib.
 O'ming bo'shat endi Bahorga,
 So'nggi umid qolmasdan o'lib.

Xudbinni men senga mengzayman,
 U ham qalbga solar sovuqlik.
 Atrofingga tushib tumanlar,
 Ong muzlaydi, go'yoki yo'qlik.

Xudbin qilar umidni yakson,
 Sen g'unchan ni qilganing kabi.
 Dilda zarra ezgulik bordir,
 Gul ko'karsin – qalbim talabi.

Hamma narsa xohishga bog'liq,
 Har ko'ngil ham ezgulik istar.
 Qor qo'ynida qalb urar toki,
 Gul ifori ko'kni taratar.

2022-yil.

Bu zulmatlar tarqalib bir kun,
Yorug'likka chiqaman shahdam.
Dilim xira qilgan o'sha tun,
Bir yulduz bo'laman,
Porlaydi olam.

Quyosh bo'lib chaqnagan paytim
Yo'llaringni qilay charog'on.
Ko'zlarimdan yosh tomsa tim-tim,
Bulutlarni hayda,
Yoki bo'l osmon.

Ne bo'lsa ham dardkashim bo'lgin,
Har dam seni ko'ray yonimda.
Menga doim mehringni bergin,
Xayollarim sensan,
Sensan yodimda...

2022-yil.

Ming tavba qilsa ham ojiz bandaman,
Men ham gunohlardan emasman yiroq.
Oshiq bo'lgan telba dilga bandiman,
Kecha-kun ishqida chekyapman firoq...

2022-yil.

Qara, kuzning ma'yus ko'zлari,
Xazonlardan qarayotgandek.
Mehmon bo'lgan turnalarning ham
Safarlari qariyotgandek.

Tabiat ham tobora so'lg'in,
Nastarinlar gullamay qo'ydi.
Bahordagi gulgun chog'larni
Tush misoli sarobga yo'ydi.

O'sish, unish, oxiri xazon,
Asli shundan iborat dunyo.
Boshimizda zangori osmon
Xolis hakam bariga go'yo.

Vaqt millari to'xtamaydi hech,
Kuz keladi, o'zgasi ammo.
Turnalarni to'xtatmoqchiydim,
Qo'llarimdan kelmadi hatto.

Men bahorni kutib yashardim,
Hozirgi payt qadriga yetmay.
Bilsam, bahor ekan har onim,
Shodliklarim ko'ngildan ketmay.

2022-yil.

Ko'kka boqib surasan xayol,
Miyig'ida kulib qo'yasan.
Anduhlarni unutib darhol,
Hammagini baxtga yo'yasan.

So'z qotishga juftlansa og'iz,
Orzulardan ochasan mavzu.
Ular soni yulduzdan-da ko'p,
Barchasiga begona qayg'u.

Yuragingning tubida dengiz,
To'lqinlari misoli ashkdan.
Moychechakni dildan sevasan,
Boshqa gullar yonmoqda rashkdan.

Hali-hanuz boladek qalbing,
Tushunolmam qanday odamsan?
Fonuslarni xayol qilguvchi
Sen butun bir o'zga olamsan...

2022-yil.

MEN

Men bahorning binafshasi,
Kuzlarga o‘gay.
To quyoshning sarchasmasi
Zulmatsiz bo‘lgay.
Men dengizman, sohillarni
Yuvib turguvchi.
Kapalakman, guldan gulga
Qo‘nib yurguvchi.
Kamalakman, yaxshi kunda
Ko‘rsatib jilo.
Shabbodaman, bog‘ qo‘ynida
Gulga mubtalo.
Balalikman, boqib ko‘zlar
Havas qilguvchi.
Ha, bolaman, kelajakni
Qo‘lga olguvchi.
Suratkashman, rasmlarda
Aks etar hayot.
Men shoirman, shodliklardan
Kuylagan bayot...

2022-yil.

(Erkin Vohidov she'rlaridan ta'sirlanib)

Hayot o'zi bir o'tkinchidir,
O'tgan yillar, "So'ngan yulduzlar".
Soniyaga teng bo'lgan palla
Asrlarga tenglasha olar.
Umr bizga berilgan ne'mat,
Ishqdan yonsin ko'ksingda yurak.
" O'lmas edi balki odamzot"
Sevgini deb bo'lsa bedarak.
Tark aylab de: "Menga ne qayg'u!
O'tmishdagi mungsiz ko'chalar".
"Yorug" dunyo" kutmoqda seni,
Kelajaging baxtdan kuy chalar.
"Kuy avjida uzilmasin tor,
She'r yarmida sinmasin qalam".
Muhabbatga oshno bo'l, axir
"Sevmoq uchun yaralgan olam".

2022-yil.

Agar sevish gunoh bo'lsa,
Tan olayin, gumroh ekanim.
Bu dunyoda qilganim bir ish,
U ham bo'lsa jondan sevganim.

Bu gaplarga ishonmam aslo,
Sevish gunoh emasdир asli.
Shunday bo'lsa oshiqlar uchun
Tugamasmi azoblar fasli.

Sabrlini "jannatiy" derlar,
Oshiq asli shumasmi axir.
Ishq yo'lida sabrsiz bo'lgan
Ko'rganmisan biron bir faqir.

2022-yil.

DUNYOQARASH

Dunyoga boq. Naqadar chirkin,
 Diyonatdan yiroq odamlar.
 Nafsiga qul birodarlaring
 Xato yo'lga bosar qadamlar.

G'iybatchilar ta'qibi kunda,
 O'tsang, qaytsang, tinmaydi tili.
 Munofiqlar buqalamundir,
 Ilymon nima? Yiroqdir dili.

Illatlar ko'p, haddan ziyoda,
 Yozay desam, qalam yo'l qo'ymas.
 Oson bilma yashashni, do'stim,
 Zohir yo'qni borlikka yo'ymas.

Kelar ekan odamzot yig'lab,
 Bu dunyoning huzuri yo'qdir.
 Jannatlarni va'da qilgan zot
 Ikki dunyo bir o'zi pokdir.

Ko'zingni yum, iymoning keltir,
 Qaytadan boq atrof-olamga.
 Bu dunyoni Yaratgan Egam
 Qalb, tafakkur bergen odamga.

Qara, bir on bola kulgusi
 Ko'ngillarni yorishtiradi.
 Yashillikda ungan gul dilni
 Go'zallikka qorishtiradi.

E'tibor ber, termulib hozir
Bu hayotning hislatin ko'rding.
Foniy dunyo bog'ini kezib,
Gul, xazonni birma-bir o'rding.

Yashash uchun yo'lingni tanla,
Darveshmisan, yo mutafakkir.
Dunyoqarash bergen Allohim
Ko'zga qo'shdi buyuk tafakkur.

2023-yil.

SIZDAN ORGANDIM

(Halima Xudoyberdiyevaga bag‘ishlov)

Qalam olgan chog‘im o‘qidim sizni:
 “Shunchaki yozmoq bu – shoirga o‘lim”.
 O‘limmas, yashashni qildim men niyat,
 Shunchaki yozmoqqa bormadi qo‘lim.

Hali hammasini yozganimcha yo‘q,
 Amalga oshmadi rejadan biri.
 Dorilamon kunni kuylashim kerak,
 Inshaolloh, ularning bo‘lmas oxiri.

Sizdek “Qo‘llarimni kuzga bermayman”,
 Dilda hukmronlik qilmas izg‘irin.
 Xayollarni quvib o‘qidim sizni,
 O‘rgandim hayotning bir qancha sirin.

“Barcha yurgan yo‘llar barchaga tegish”,
 Axtarib yuribman o‘zimning yo‘lim.
 Bu yo‘l sodda bo‘lur, hammaga tanish,
 Lekin zabit etgani bir mening qo‘lim.

“Yashashga arzirli dunyoni qurish”
 Shu niyatni deya qancha o‘rtandim.
 Ojizlik qilmaydi endi qalamim,
 Nima deb kuylashni sizdan o‘rgandim.

2022-yil.

HAYOT

Hayot bu – kurashdan iborat sahma,
Bunda to‘xtashni hech bilmaslik kerak.
Rolingni yo‘qotib qo‘ysang bexosdan,
O‘zingga ishongin, ishonch bu – tirkak.

Mashaqqatdan keyin bo‘lishi mumkin,
Hayotga nisbatan ozgina nafrat.
Seni olqishlashgan kunda tug‘ilar
Har bir zarra uchun qalbda muhabbat.

2021-yil.


QISHLOG'IM TONGI

Erta tong ko'zimni ochaman porloq,
Tog'lar orasida quyosh sochar nur.
Qishlog'imdan o'zga bormi yaqinroq?
Bag'rida bo'lishlik qanchlar huzur.

Maysalar ustiga tushgan shudringlar,
Yana qanday damlar bor bundan buyuk?!

Shahar oqshomlari go'zal, bilaman,
Lekin qishloq tongi men uchun suyuk.

2020-yil.



BAGISHLOV

(Zulfiyaxonim tilidan)

“Yana bugun bahorga zorman”,
Kumush qorlar jonimga tegdi.
Ulkan tog‘lar, ko‘m-ko‘k vodiylar
Mag‘rur boshin yorimga egdi.

“Eng gullagan yoshlik chog‘ida”,
Lolazorlar ichra yo‘qoldi.
O‘g‘irlamay qalamim bir kun,
Qalam emas, jonimni oldi.

2019-yil.

SHOIRGA AYTAR SO'ZIM

(Zulfiya monologi)

Mana, yana yodingni qo'msab,
Qalamimni qo'limga oldim.
O'tgan shirin xotiralarni
Men avaylab qog'ozga soldim.

Nafaqat sen, balki bahorni
Ich-ichimdan juda sog'indim.
Nima qilay, axir shuncha vaqt
Faqt qalam bilan ovundim.

Seni tinmay solar yodimga
Yoshlikdagi nafis ohanglar.
Mehr bilan aytgan so'zlarining
Qulog'imning ostida yangrar:

"Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda..."

2019-yil.

SHE'rimga

Dardlarimni aylasam bayon,
 Odam ko'ngli ko'tarolmaydi.
 Senday do'stni topa olmayman,
 Senga hech kim yeta olmaydi.

Alam yoshi bo'lsa gar qat-qat,
 Artishga sen qodirсан faqat.
 Qalb amriga qilgum itoat,
 Yuragimda nodirсан har vaqt.

Shodlik ila to'lsa bugunim
 Sen-la o'tar o'sha bir kunim.
 Yonimdasan hatto har tunim,
 Har onimiz etdik tarannum.

Kezib yurib orzu ummonin,
 Tozalading uning g'uborin.
 Sensan mening yaqin "insonim",
 Namoyondir senda har onim.

Yaxshi-yomon kуллarni birga
 O'tkazaylik, kel, bir umrga.
 Tuyg'usiga qul bo'lган oddiy
 Yor bo'lgin bir telba shoirga.

Qalb tubida yaralgan bayot,
 Sensan asli ko'nglimning naqshi.
 Sening bilan go'zaldir hayot,
 "She'rim, sensan hammadan yaxshi!"

2020-yil.

"TOPMADIM" radifli g'azali

Senga dardim aytmoq-chun
bir lahza imkon topmadim,
Dardlarim ko'pdur aytish-chun
hech maqbul on topmadim.
Olamda ko'pdir kimsalar
yor-u birodarlikka,
Bu odamlar ichinda
sendek bir inson topmadim.

Boqadurmen senga doim,
falagimsan men uchun,
Zamin yuzin kezib,
nurga to'la osmon topmadim.
Moziyga solib nazar,
ko'p ulug' zotlarni ko'rdim,
Lek ular hech birindek
elda sharaf-shon topmadim.

Ko'plab dil-u yuraklarga
solib ko'rdim-u nazar,
O'zga qalbda senikidek
zarra iymon topmadim.
Tushungan ham sensan meni,
yana ishongan ham sen,
Bu dunyoda sendan o'zga
mening tomon topmadim.

Zarifadur qalam olib
bitgan she'r-u g'azallar,
Ko'nglum uchun bu dunyoda
o'zga sulton topmadim.

"KELSALAR" *radifli g'azali*

"Koshki bu kulbam aro
 yakbora yorim kelsalar",
 Xazonlarni chetlatib
 fasli bahorim kelsalar.
 Faqirdurmen, yolg'iz xasta
 dilga ega bir qashshoq,
 Ko'nglim uyi zarga to'lib,
 ul sultonim kelsalar.

Kecha-kunduz yo'llariga
 ko'zlarim bo'lib mushtoq,
 Ko'zlarim quvontirib,
 zor-intizoram kelsalar.
 Qalbim uyin qilib obod,
 qadam ranjidabalon,
 Vayronalardan osha
 jabr-u ozorim kelsalar.

Jahon ichra bildim tanho
 o'shal bag'ritoshimni,
 Ne qilay, dil hukmron,
 ko'ngli xumorim kelsalar.
 Layli Majnun deb yongandek,
 o'shal ko'yidadurmen,
 Bu g'amlarni quvibon
 dili ozorim kelsalar.

Zarifaman, ul hajrida
 Furqat izidan yurgan,
 Saodatga boshlabon
 nurli tumorim kelsalar.

TUYUQLAR

Quyosh botar yana, kun bo‘lmoqda kech,
Ulgurmagan ishlar uchun endi kech.
Orzuga ishongin hamisha, har on,
Saroblarni unutgin, saroblardan kech.

Unish – so‘lishdir, umr misoli bir o‘t,
Bu qisqa hayoting yaxshi yashab o‘t.
To‘g‘ri yo‘lni tanla, adashma zinhor,
O‘z umringni vayron qilma qo‘yib o‘t.

2022-yil.

USTOZ

Quyosh misol sochgandek nurin,
Ziyo sochar bizlarga ustoz.
Uning buyuk xizmatlari-la
Ilm koniga qilurmiz parvoz.

Ezgu yo'lga yetaklab bizni,
Dilda yoqdi bilimdan olov.
Kundan kunga alangalanib,
Otash bo'lib yonmoqda lov-lov.

Qalbdan olib bu otashidan,
Yosh avlodga berayin men ham.
Uningdek ulug' inson bo'layin,
Ziyo ila yashnasin olam.

2019-yil.

MENI YO'QLAB KELDINGMI, BAHOR?

Kumush qorlar tegib jonimga,
Hech kim kelmay qolib yonimga.
Rosa qilib meni intizor,
Meni yo'qlab keldingmi, bahor?

Qolib ketib yakka-yu yolg'iz,
Qalbim bo'lib ketganida muz,
Eritguvchi bo'lding-ku ilk bor,
Meni yo'qlab keldingmi, bahor?

Kulgu olsam yuzlаримга goh,
Chechak ochib tashlaysan nigoh.
Shodliklarga o'zing bo'lib yor,
Meni yo'qlab keldingmi, bahor?

Go'zallikka burkanib olam,
Yorishganda mening ko'nglim ham.
Bildim, kurtak qilganda izhor,
Meni yo'qlab kelibsан, bahor.

2020-yil.

ORZULARIM UMMONI

Orzular ummoni atalgan senga,
Panohiga olsin Yaratgan Egam.
Yuzingdan tabassum arimasin hech,
Sening kulging bilan go'zaldir olam.

Orzular ummoni atalgan senga,
Tilayman osuda eng baxtli hayot.
Sening bu go'zallik xilqating uchun
Shoir yo'q sen uchun yozmagan bayot.

Orzular ummoni atalgan senga,
Nafaqat orzular, balki sevgim ham.
Sen borsan men uchun hayot bor demak,
Men uchun tanhosan o'zing, VOLIDAM...

2020-yil.

UMR

Hayot ekan o‘zi berilgan sinov,
Kimlar do‘sit bo‘larkan, kimlar esa yov.
Barchasi qoladi bir ibrat bo‘lib,
Sochlaring oqarib, tushganda qirov.

Bolalik, o‘smirlik va nuroniylilik,
Onlari-la to‘lsin umr daftari.
Faqat yaxshiliklar qilgin hayotda,
Ezgulik-la o‘tsin umringning bari.

2021-yil.

SAODATLI TUSH

Bu dunyodan sarmast uyquga ketdim,
 Tushda bir darveshning ko'rindi yuzi.
 Meni ko'rgan zahot chorladi imlab:
 "Qani, beri kelchi, ummatning qizi".
 Allohning ismila ayladim salom,
 Yetti pushtimgacha aytdilar rahmat.
 Yo Rab, davomida qo'shib qo'ydilar
 Rasul payg'ambarga o'nta salavot.
 So'zin bo'lmay yana ettirdi davom,
 Shoshayotgan misol gapirardi tez.
 U so'zin tugatdi, lekin men gungman,
 Unga hech so'z demay, uyg'ondim shu kez.
 O'zni poklash uchun olib tahorat,
 Allohning huzuri tomon shoshildim.
 Tahajjud o'qidim, keyin bir muddat
 Joynamoz ustida turib qoldim jim.
 Birdan ko'zlarimdan yosh oqdi duv-duv,
 Robbimdan kechirim so'radim tinmay:
 "Tushimda uchradim bir mo'ysafidga,
 Yo Rahmon, nima so'z deyishim bilmay".
 Sahoba ekan u, Rasulga yondosh,
 Kelibdi qandaydir vazifa bilan.
 Meni ko'rib dilga tushibdi hadik,
 "Asri saodat"dan so'zlashlik birdan.
 Gap oxirda menga so'z qotib dedi:
 "Aytgin, ey ummatning qizi, salom ayt.
 Zamondosh ummatlar nomini ham qo'sh,
 Bu kecha orzular ushalajak payt".
 Lekin men gung bo'ldim, demadim bir so'z,
 Aytgin, ey Allohim, nima ham derdim?

Zamondosh “ummatlar” qilmishin o‘ylab,
Orzudan kechdim-u, bo‘lib qoldim jim.
Aytgin, nimani ham ayta olardim,
Bular Rasulni ham bilmasliginmi?
Til-u dili boshqa munofiqlarning
Yaxshilikni ko‘zi ko‘rmasliginmi?
Qadr kechasini chiqarib yoddan,
Yangi yil uxmlamay kutilishinmi?
Iftorlik ko‘rmagan og‘izlarda-chi,
G‘iybatlar to‘xtamay yutilishinmi?
Iymonni yot bilgan bu nokas qalblar
Nomidan yo‘llaymi, Rasulga salom?
Aytchi, yo Rahmonim, arzirmikanmiz,
Ummat bo‘lishlikka bizlardek odam?
O‘zing kechirgin-ey, rahmdil, Xoliq,
Iymondan porlasin ko‘ksimda yurak.
Inshaalloh, yo‘llay go‘zal salomim
Ul sahoba qayta berganda darak.
Islom nuri ila bu ojiz dilni
Shayton fitnasidan olgin panohga.
Munosib ummatlik nasib aylasin
“Ummatim” deb o‘tgan Rasulullohga!

2023-yil.

BAXT MANZILI

Maqsadlarim uchqur, tulpor misoli,
 Ulardan sarasin safarga saylay.
 Hamrohlikka o'tkir qalamim olib,
 Eng olivy so'zlarni ash'orim aplay.

Bir go'zal manzilni mo'ljalga oldim,
 "Susambil" oldida ip esholmaydi.
 Tafakkur quyoshi porlaydi unda,
 Gullar iforidan shamollar – daydi.

Lekin bu go'shada yo'q atirgullar,
 Men sevgan moychechak gullar sarasi.
 Uning tikoni yo'q ozor berguvchi,
 Ko'rgan odamlarning kelar havasi.

Menga tanish dengiz o'sha manzilda,
 U menga o'xshaydi sokin, dam aksi.
 Bulbul xonishidan gulga mubtalo,
 Ko'zni quvontirar kapalak raqsi.

Ul maskan bir mening dunyoyim bo'lar,
 Baxillikka yo'y mang, kiritay qo'lga.
 Endi bu maqsaddan qaytarolmaysiz,
 Baxt manzili tomon otlandim yo'lga.

2023-yil.

YURAK

Sening davring keldi, o'ynoqi yurak,
Kuyla jo'shqinliging tarannum etib.
Ishingdan bu dillar o'yinga tushsin,
Garchi g'amlar ketsin tez unutilib.

Tahsinlar aytsinlar, chalsin olqishlar,
Atrofga qaragin, yaqin bahor ham.
Ochilgan ilk chechak faqat sen bo'lgin,
Sendan bezak olsin, hattoki olam.

Lekin unutmaki, gul bo'lar xazon,
Sen ham to'xtagaysan o'shanday bir hol.
Tangrining izmida ekan qismating,
Xazon chog'i kelmay, rostin kuylab ol.

1.02.2023

O'n yetti yosh sari olmoqdaman yo'l,
Shuncha yil nafasin his etganim bor.
Qancha ayozlarga duch keldi bu dil,
Lekin tark etmadi qalbimni bahor.

Aql: "Bolalikni tark etgin", – deydi,
Ulg'ayganim darrov pesh qila boshlar.
Yurak qurg'ur unga hech bo'ysunmaydi,
Ayrolik o'ylasam ko'zimda yoshlar.

Nima ham qilayin, qismat izmi bu,
Uni mag'rur qarshi olaveraman.
Aqlga o'zimni kattadek tutib,
Qalban bola bo'lib qolaveraman.

5.02.2023

(Navoiy g'azaliga nazira)

“Oshiq o‘ldum, bilmadim,
yor o‘zgalarga yor emish”,
Ishq atalmish bo‘stonda
qancha-qanchalar xor emish.
Bu maskanda yolg‘onlar ko‘p,
orzularga undar, lek
Hasrat dardi baxt-u visol
izidan xushyor emish.

Bevafoni menga ko‘ngil
bermaslikda ayb etsam,
Ortidan ovvoralari
bir qarashga zor emish.

Mish-mishlar bor,
o‘zi kabi yori ekan vafosiz,
Ayro baxtin ko‘rolmasdin,
baxtsizligi ozor emish.
Aql bovar, fonyi dunyo
oshiqlarin chetga sursak,
Visoliga jannatdagi
hurlar intizor emish.

Layli-Majnum qismatiga
rozi emas bu ko‘ngil,
Ko‘yidagi shaydolarning istagi
bir – diydor emish.
Zarifadur, hasrat ichra
Navoiyga yuz tutgan,
Dardi gullab, ko‘pligidan
qalbida gulzor emish.

(*Bobur ruboiysiga nazira*)

“Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi”,
Xasad fe’lin qalbidan tark etsa kishi.
Shayton La’in fitnasiga uchramasdan,
Yo Rab, ko‘nglida iymon bilan o’tsa kishi.

5.02.2023



Bugun boshqachadir shahar shovqini,
O'zni eshitishga bermaydi imkon.
Yo darrov bezdimmi shaharidan ham,
O'ylayman, go'yoki qalbimda gumon.

Qandaydir boshqacha bugun ob-havo,
Xuddi erkin nafas ololmayapman.
Tartibsiz xayollar naqadar chalkash,
O'yagan o'yimda qololmayapman.

Oldingiday emas atrofdagilar,
Go'yoki kulmoqda ustimdan bari.
Omma orasiga kirolmayapman,
Qochgim kelayotir ulardan nari.

Bugun boshqachadir qalbdagi sog'inch,
Shudringlar tizildi kipriklarimga.
Xuddiki qaytadan jon kiriyotgandek,
Qalbimning hasratli o'liklariga.

Umuman o'zgacha yurakning sasi,
Qaytadan urmasdek harakati tez.
Hovurim olovdek o'chirmoq uchun
Yomg'ir tomchiladi yuzimga shu kez.

Ha, aynan yomg'irlar oldingisidek,
Faqat ular taskin bo'lar jonimga.
Daydi xayollarni quvib yodimdan,
Halovat bo'lolar qaynoq qonimga.

Bugun boshqachadir shahar shovqini...

Kechirgin, Ona...

Muhabbatni ko'p bor kuyladim, lekin
 Bir misra yozmadim senga deb, Ona.
 Sevishni o'rgatgan sen emasmidng,
 Qalam ojizligi bu bir bahona.

Duo qil, Ona...

Asli men duong-la borman, odamman,
 So'ragin, bo'lmayin o'ysiz, devona.
 Panohim, tilagin yolg'iz Allohdan,
 Yo'llarimda g'ovlar misli mastona.

Qo'rqtyapman, Ona...

O'zing bu jonomga birgina taskin,
 Go'yo o'lim ortdan menga parvona.
 Yo Astag'firulloh, kechirgin, Robbim,
 Maloyikalar ham yonda giryona.

Qutqargin, Ona...

O'limni istamas bu telba qalbim,
 Borolmam yoniga bo'lib mardona.
 Qilganlarim bari gunohi azim,
 U dunyoda bo'lmay sendan begona.

Uyg'otgil, Ona...

Bu yomon tushlardan uyg'ot meni tez,
 Zulmatlar ichida bo'ldim sarsona.
 Bir daydi shu'laning ortidan quvib,
 Chohlarga g'arq bo'ldim unga ishona.

Qaragin, Ona...
O'n oltida oltmis qoralaganday,
Bolalik uyidan bo'ldim ravona.
Bilmam, yana qancha sinovlari bor,
Yo'limni kutayotgan bo'lib pinhona.
Mayli, ularni ham kechib o'tarman,
Lekin bir o'tinchim sen kechir, ONA...

8.02.2023



Dadajon, bu mag'rur qizingga qara,
Hatto kechasidan zarra asar yo'q.
Dil og'riqlarini aytmaydi senga,
“Yaxshi” deyishidan sening ko'ngling to'q.

Uni xafa qildi ko'p bezorilar,
Lek qizing bo'lindi ularga taslim.
U axir kurashni sendan o'rgandi,
Yomonliklariga qarab turmas jim.

Qara, o'ylari ham ancha ulg'aygan,
Ushalmas orzular qalbin etgan tark.
Fikrini maqsadlar sari jamlagan,
Behuda saroqlar uchun eshik berk.

Bir boqsang, ko'rasan unda o'zingni,
Hayot sahifasida aksing qoralab.
Yashayotganingdek o'ylab sen uni,
U ham yashamoqda bir sening sabab.

10.02.2023

Yomg‘ir yog‘ayotir chertib qalb torin,
Yangramoqda unda sog‘inchning kuyi.
Tanish noqaratga jo‘r bo‘lar yurak,
O‘zgacha emasdir uning bu ko‘yi.

Labimni titratgan ovozda isming,
Ochilgan chechaklar ortdan takrorlar.
Sendayin topolmay butun dunyodan,
Bu yurtga qaytadan kelar bahorlar.

Kiprikda terilgan shabnamda aksing,
Yulduzlar hijolat jilolaridan.
Senga bo‘lgan ishqim qutqarar meni
Dunyoning turli xil balolaridan.

(Labimni titratgan ovozda isming,
Kiprikda terilgan shabnamda aksing...)

14.02.2023

MATEMATIKMAN

Sevinchlarni qo'shib, g'amlarni bo'lib,
 Hayot funksiyasin ishlayveraman.
 Ko'p irratsional ishlardan qochib,
 Darajalab qadam tashlayveraman.

O'suvchi parabola misoli kulib,
 Ildizda qolganga quvonch beraman.
 Ko'rinsam goh oddiy kasr misoli,
 O'zimdan o'tganin bilib yuraman.

Nuqtada qolishdan qo'rqedim va bildim,
 Umr to'g'ri chiziq emasligini.
 Bilaman, plyusni qancha ko'paytsam,
 Minuslar men tomon kelmasligini.

Mening yashash soham shundan iborat:
 Tabassumdan boshlab cheksizlik sari.
 Tengsizliklardandir asli bu dunyo,
 Sarobni unutgin, bo'sh to'plam bari.

Yashash formulasin tuzdim o'zimga,
 Qiymatim nol emas, shunga tirikman.
 Hisob-kitob bilib bunday hayotni,
 G'alati bir telba matematikman.

16.02.2023

OTA

Ota, duolaring ijobatin ko‘r,
Qizing ulug‘ yo‘lning ostonasida.
Buyuk marralarni maqsadga oldim,
Senga o‘xshashlikning bahonasida.

Erishgan yutuqlar sening tufayli,
Yarmidan ko‘aida duong hissasi.
Zabt etilgan kichik marrani aytsam,
Ko‘zingdan o‘qilar rahmatning sasi.

Shaharlardan turib o‘ylayman seni,
Ortimdan madadkor, qalqonim o‘zing.
Dunyoda eng baxtli inson bo‘laman,
Men sababchi bo‘lib porlasa yuzing.

Duong ijobatiga ishonardim-u,
Lek buni aqlimga anglatmagandim.
Otajon, baxtimga ishonardim-u,
Bunday ulug‘ baxtni men kutmagandim.

19.02.2023

ONA QISHLOQ

Xayollar chulg‘adi mendek kimsani,
Tushunmadim-da hech shaharim seni.
Chalg‘imoqlik uchun qilsam ham neni,
Ona qishloq chorlar bag‘riga meni.

Yurgan yo‘llarimdan unib chechaklar,
Shamol barg orqali aytar ertaklar.
Orzular tutashib ketgan falaklar,
Ona qishloq chorlar bag‘riga meni.

Keng yaylovlar sari talpinar yurak,
Unga tanish bo‘lgan halovat kerak.
O‘sha manzil tomon qadamlar tirkak,
Ona qishloq chorlar bag‘riga meni.

O‘sha chang ko‘chalar, o‘sha tor ko‘cha,
Hatto noliganman undan bir necha.
Endi sog‘inyapman uni bu kecha,
Ona qishloq chorlar bag‘riga meni.

Ariqlar bo‘yida yalpiz ifori,
Takrorlanmas bo‘lar har bir bahori.
Mening qalbim kabi toshqin anhori,
Ona qishloq chorlar bag‘riga meni.

(Qishlog‘im, bag‘ringda asraysan uni,
Lekin uni emas, sog‘indim seni!..)



Ey majnunsifatim, o'ylab qolaman:
“Siz ham sevasizmi meni mendayin?”
Bunday xayollarni uchirmoq uchun,
Shamollar sochlарim silar bir mayin.

Ba'zida tuyilar ko'nglingiz beg'am,
Go'yo qalbingizga sevgi begona.
Bunday holatlarga dosh berolmasdan,
Holdan toyar yurak xo'p yona-yona.

Men baxtni so'radim, rahmdil Alloh
Ko'nglingiz ko'nglimdan qilmasin yiroq.
Mensiz baxtingizdan rozi emasman,
Baxtsiz bo'lishingiz undan og'irroq.

3.02.2023

Tushun, men o‘zimga tushunmayapman,
O‘sha kundan buyon yo‘q halovatim.
O‘shanda savoling javobsiz qoldi,
Lek endi soniya tuolmasman jim.

Hattoki tunlarim sukutdan mahrum,
O‘ylarim chalkashdi u kundan beri.
Go‘yo sen haqingda alla aytmoqda,
Daydi shamollar-u oy-yulduz bari.

Nazdimda, qizlarning xayolida sen,
Lek meni o‘xshatma ularga zinhor.
Menda g‘urur ustun, ular singari
“Ket” desang, ortingdan yurmayman zor-zor.

Bilsang, yo‘llarimdan izlayman seni,
Uchratsam, soniya tuolmasman jim.
Meni ado qilgan qora qoshlaring
Orasida endi mening qismatim...

12.02.2023

Qismatning yozganin o'qib borarman,
Goh sho'xchan, goh o'ychan bo'lib qoldim jim.
Bir g'am, bir shodlik-la qarshilar meni,
Kutmagan kunlarim, kutgan kunlarim.

Nolimayman o'tmish, yo bugunimda,
Quyoshga talpinib o'tar tunlarim.
Illo, o'ylarimdan go'zalroq bo'lar,
Kutmagan kunlarim, kutgan kunlarim.

Ko'ngilni umiddan uzymayman bir zum,
Hali ko'p yo'llardan o'tarman balkim.
Ajabmas, zor bo'lib chorlasa meni,
Kutmagan kunlarim, kutgan kunlarim.

Yolg'iz bir o'zigga qildim tavakkul,
Doim xayrlisin nasib qil, Tangrim.
Sening izming ila qarshilar meni,
Kutmagan kunlarim, kutgan kunlarim...

20.02.2023

Ancha kunlar bo'ldi, she'r yozganim yo'q,
Hatto sevgini ham kuylolmas qalam.
Xayollar shu qadar chalkashib ketdi,
Yurak bilan aql ko'rolmay baham.

Sabr, Alloh, sening inoyatingdir,
Bu karamga meni ko'ribsan loyiq.
Shu xislatim ila elda nom topsam,
O'zingga tashakkur, tashakkur, Xoliq.

Shunchaki, shunchakiga bormaydi qo'lim,
Yuzaki ishlarni yoqlamas bu dil.
Nogoh yuragimda uyg'onsa to'fon,
Yo Yaratgan Egam, o'zing rahim qil.

Tilimdan tushmasin hamd-u sanolar,
Zero, bu dunyodan ketmayin izsiz.
Toki, borligingga imonim komil,
Qalbimdan tirikman, emasman hissiz.

O'tgan ishlar uchun Alhamdulillah,
Yurakni qiblangga tomon qarattding.
Bunday qismatingdan ming bor roziman,
Shukr, "O'zing meni shoir yaratding!"

2.03.2023

Azizim, orzular ro'yobi tomon,
Safarga chiqaylik, qo'llasin Alloh.
Mehrim dardlaringga davolar bo'lsa,
Sevging xavf-xatardan bo'ladi panoh.

Qo'y, o'sha "Layli va Majnun" qissasini,
Ali-Fotimaga ergashamiz biz.
Illo, so'nggi manzil jannatlar bo'lar,
Xudoning o'zi yor bo'ladi yolg'iz.

10.03.2023

Yangi O‘zbekiston. Renessans davri,
Ulug‘ yo‘lboshchi-la qo‘yamiz qadam.
Hali shunday kunlar kutmoqda bizni,
“O‘zbekiston” deya, titraydi olam.

Har sohada o‘sish, ko‘p rivojlanish,
Xush keldi, insonga e’tibor yili.
Yangi maqsadlarga chorlaydi bizni,
Sifatli ta’limga xos tamoyili.

Yangi avlod uchun yangi qonunlar,
Buyuk jamiyatga bo‘lar poydevor.
Fuqaroning har bir foydasin o‘ylab,
Tuzilgan qonunlar yana qayda bor?

Har bir qadamidan xislatigacha,
To‘g‘ri bo‘l devilgan, yuksak or-nomus.
Shunday davlat uchun muborak bo‘lsin,
Yangi O‘zbegimga yangi Bosh Qomus!

14.03.2023

HAYOT

Og‘ushingga otay o‘zimni, Hayot,
 To ishqning kuyiga bo‘layin sarmast.
 Faqat sevinch sozi chalinsin unda,
 G‘am-g‘ussalar uchun uyuştiray qasd.

Qancha oshiq dilni ulg‘aytirgansan,
 Taqdir ishin o‘zing bilib qilguvchi.
 Fazoviy cheksizlik qadar muhabbat,
 Mendan ko‘ra o‘zing yaxshi bilguvchi.

Biroq, zinhor qalbni qiynama, Hayot,
 Yagona o‘tinchim, shu iltimosim.
 Umr kitobimni mo‘jizalashtir,
 Toki yana yuksak bo‘lsin ixlosim.

Men seni sevaman, ey go‘zal Hayot,
 Ishon, mening sevgim shunchaki emas.
 Illo, saodatga yetaklar ruhni,
 Adashtirib yo‘ldan, qalbni ko‘r qilmas...

14.04.2023

VADA

Ichimda nimadir zil bo'lib ezar,
Kiprikka tizildi shabnam shashqator.
Tomchi sizib chiqsa, odam emasman,
Chunki yig'lamayman, degan va'dam bor.

14.04.2023



*(Muhammad Yusufning
“Mening ertagimsan” she’riga nazira)*

“Mening shodligimsan, bolaligimsan,
Mening g’ussam o’zing, mening armonim.
Seni osmonimga olib ketaman,
Yerda bizga kun yo‘q, kun yo‘qdir, jonim!..”
Men o’sha – “orzusi oydan oydin qiz”,
Seni sevishdek bir qismatdadurman.
Ko‘plarning ko‘nglida o‘zingsan yolg‘iz,
“Shaydolaring ko‘p-u, men bittadurman”.
Tishim orasida saqlagan sirim,
Yokida ovoza sho‘x qo‘srig‘imsan.
Bo‘lsa hamki qalbing menga yashirin,
Bilaman, sezaman, sen oshig‘imsan.
“O‘ylamayman, deyman o‘ylamay bo‘lmas”,
Senga ishonaman, shaydoyingga yo‘q.
Qo‘rqaman, kun kelib bo‘lmay qasdma-qasd,
Ularga qayrilma, bo‘lsin ko‘nglim to‘q.
Afsuslanmay sira sevganim uchun,
Rashkimni qo‘zg‘ama, turmasin to‘fon.
Agar bilging kelsa sevgimning kuchin,
So‘ra barin oydan, tug‘dirmay gumon.
Ertagimsan, illo, yakuni go‘zal,
Chorlayverar tinmay seni osmonim.
Ketamiz, bizlarga qarshi chiqsalar,
“Yerda bizga kun yo‘q, kun yo‘qdir, jonim!..”

16.04.2023

Menda boshqachadir dunyoga qarash,
Atrofdagilardan ko'pgina farqli.
Axir, o'y-u fikrim, orzu, xayolga
Hammadan ham ko'ra bir o'zim haqli.

Meni ko'rgan odam nom qo'yar: "telba",
Yoki "ishq mast qilgan daydi, devona".
Kim qanday o'ylasa, mayli roziman,
Ko'nglimga olmayman, g'amdir begona.

Kunduz kapalakka ergashib bog'da
Gullarning husniga to'qiymen g'azal.
Bulbullar tilidan chiqqan xonishlar
Mening ash'orlarim azaldan-azal.

Tunda, oy-yulduzlar shohidligida
Dostonlar bitaman qilib ermaklar.
Buni eshitgansiz, o'qigansiz, bu –
O'sha "Shahrizoda" aytgan ertaklar.

Pushti bulutlarda yashash orzuyim,
Mening xohishlarim yerdan tashqari.
Jismim yerda yashar, qalbim samoda,
Menimcha, men yerlik emasman asli...

15.03.2023

Seni sevmaslikka zarra sabab yo‘q,
Sabablar sevgiga chorlaydi dilni.
Muhabbat ixlosim alangalatdi,
Ishqim yashash uchun qistar ko‘ngilni.

Har tong ko‘zim ochib aytaman shukr,
Sen bor bu dunyoda uyg‘organimga.
Endi qutulolmam, sevgi zardobi
Yoyilib bo‘lgandir butun tanimga.

Robbim huzuriga shoshaman har gal,
Sen haqda so‘zlayman unga betinim.
Illo, seni menga yaqin qiladi,
Sen meni Xudoga qilgansan yaqin...

21.06.2023

O‘zgacha qismatning sohibasiman,
Men Layli emasman, Shirin ham emas.
Mening bitiklarim anchayin boshqa,
Hattoki ularga qilmayman havas.

Men yorning kimligin bilmay sevaman,
Maktablarim ila quchaman uni.
Balki o‘ylarimda yaratib qo‘yib,
Xayolda bo‘lganman ishqning mahkumi.

Balki kitoblardan topganman uni,
Yoki shirin tushlar nihoyasida.
Men ham yashayapman o‘scha telbaning
Orzudan yaralgan hikoyasida.

Bir kun baxt qasrini quramiz birga,
U yerda bo‘lmaydi dardlar, xiyonat.
Umr yo‘llarimiz tutashgunicha
Men uni Xudoga qildim omonat...

21.06.2023

Ba'zan keng dalangga sig'mayman, qishloq,
Ufqingda quyoshdek botgim keladi.
Ba'zan iliq mehring mast qilib dilni
Suruvlar ichida bo'laman daydi.

Ba'zan ko'ksingdagi o'sha buloqda
Mening ko'z yoshlарим oqar qo'shilib.
Ba'zan tog'laringda yangrar baralla,
Xandon kulgularim aksi jo'sh urib.

Ba'zan ko'p noliyman tor ko'chalardan,
Balki qalbingni ham qilganman chil-chil.
Ba'zida shovqinli shahar yo'lida
O'sha ko'chalaring istaydi ko'ngil.

O, ona qishlog'im, jonajon qishloq,
Sendan uzr so'rар bir dehqон qizi.
Shaharda olifta bo'lib yursam ham,
Yurakdan ketmagan mehringning izi.

22.06.2023

(Zulfiya tilidan)

“Yana bugun bahorga zorman,
O‘z bahorim kabi shoshqaloq.

Yana bugun bahorga zorman,
Kutaverib dil bo‘ldi qadoq”.

Mana, keldi xazonrezgilik,

Kundan kunga erta so‘nar ufq.

Kunlar sovir kun sayin, lekin

Ko‘ngil sendan sovigani yo‘q.

Seni deya qalbimda bahor,

Garchi yo‘llar to‘la xazonga.

Sensizlikning qora kunlarin

Baxtim uchun sotay arzonga.

Kuz yomg‘iri chertib yuragim,

Qalb ko‘zini qilmoqda tiniq.

Shu yomg‘irda barq urgan sevgim

Bahor kelsa bog‘ bo‘lar, aniq.

Kuz shamoli beradi darak:

Sen ham meni sog‘inibsan yor.

Oshiqlarmiz – ishq deya halak.

Bahor qildi buncha intizor.

Qahraton qish kutmoqda hali,

Bu qish misli umrning qishi.

Oq zariga sabrim o‘rasam,

Yetarmikan tahsin, olqishi?

Sog‘inchlarga nisbatan qarshi

Sabr ila urush boshlayman.

Kuzning, qishning bahridan o‘tib,

Men bahorni kutib yashayman....

Meni eslamaydi, deya o'ylama,
Seni o'ylamagan vaqtlarim bekor.
Sen bexabar bo'lgan oshkora emas,
Sog'inchlarga to'la maktublarim bor.

Ishonsang, mendayin sevmagan hech kim,
Lablarim titrasa, isming jaranglar.
Qalbdagi koinot qadar so'zlarni
Xatlarda so'zlaydi nafarmon ranglar.

Sog'inch sarhadidan toshmoqda sabrim,
Shukr, yaqin qoldi sen kelar chog'ing.
Meni ko'rish uchun otlansang yo'lga,
Gulga to'la bo'lsin iliq quchog'ing.

27.02.2023

Teraklar shiviri xayolga tortdi,
Samoning sofligi ko'nglimdan tiniq.
Nahotki, qalbinga baxt, shodlik yotmi?
Ko'zingda bolalik surati siniq.

Sen bunday yashashga yaralmagansan,
Bunday yashash uchun huquqing ham yo'q.
Yurak otashimdan olaqol, yoki
Qalbing yaralasin ishq atalmish o'q.

Qara, shuncha baytlar senga atalgan,
Nega qolsin bular so'zsiz, izohsiz?
Ishq Haqqa eltadi, o'ylama gunoh,
Yo aytgin bormikan biror gunohsiz?

To'g'ri, bu dunyoda ozgina qiyin,
Chinakam sevgini ko'tarib yashash.
Menda ham orzu va ro'yolar farqli,
Sen faqat kurashgin, shunchaki kurash!...

2023-yil.

Ko‘zlarimga uyqu kirmagan,
Tunga yolg‘iz o‘zimman sherik.
Yulduzlarga bag‘rini ochgan
Osmonning ham darpardasi berk.

Yolg‘iz o‘zim tirikday go‘yo,
Kimdani so‘ray seni, yorijon?
Cheksiz sevgi sig‘gan qalbimga,
Ortiqchadek ozgina hijron.

Darak ber, deb tunga yolvordim,
Sen bemehr holatin so‘rab.
U chekindi, borliqni esa
Tonggi shafaq nurlari o‘rab.

Xabar berdi quyosh jilmayib,
Shodligidan aylanar osmon.
Tun va’dasin yo‘llabdi undan,
Shomda bo‘lar ahvoling ayon.

12.01.2024

Seni orzu qilar tushlar bor, “Taskin”,
Men o’sha tushlarga abadiy tutqun.
Birdek ko‘zni yumib uchrashaylik, kel,
Ming yil ko‘rmagandek sog‘indim bugun.

Bitta manzildamiz, lekin yo‘q diydor,
Qismatning hukmidan yig‘laydi shahar.
Suratlarga boqib ovunsa ko‘zlar,
Qalblar ko‘chalarda sarson, darbadar.

Qishloq ko‘chasida bir kulgan eding,
Shahar tunlarida qolaverdim jim.
Kiprigim yosh bilan uchrashgan mahal,
Seni ko‘rgim kelar tinmay, “azizim”.

28.01.2024

Sen mening bugunim, illo, ertam ham,
Sensiz bu manzillar g‘uborga to‘la.
Ming kam sensiz dunyo, emasdир bir kam,
Visol chog‘i tuhfa jannat bir yo‘la.

Men hech shoirlikka qilmadim havas,
Qo‘l emas, qalamni tutgandir yurak.
Mening yozganlarim oddiy she‘r emas,
Ular ishq faslida ochilgan kurtak.

Eng katta ilhomim o‘zingsan-ku, ayt,
Sening madhing bilan yaralar bayot.
Adashsam chorlaysan: “Bir o‘zimga qayt”,
Axir o‘zing menga bergansan hayot.

02.02.2024

Jism ruhning zindoni ekan,
Ruhim sig'may tanamda halak.
Go'yo zamin torlik qilmoqda,
Og'ushiga chorlaydi falak.

Ruhim bandi nafs zanjiriga,
Tanamga ham kelmoqda malol.
Hatto uyqu, shirin tushga ham
Fitna ila bermoqda halal.

Ahli olam, nafsga berilmang,
Iyomon uchun qiling ibodat.
Solih ishda bardavom bo'lgan
Mo'min qalbga va'dadir jannat.

04.02.2024

Qara, o'rik gullabdi qiyg'os,
Gul ko'ylagin kiymoqda olam.
Zahmatlardan qutuldi dunyo,
Nega sening ko'zlariningda nam?

Bir boqqina moychechagimga,
Ko'zing quvnar tikilsang bir zum.
Hayot kular g'unchalar bilan
Nega senda yo'qdir tabassum?

Bir jilmayib boqqin olamga,
Erib ketsin qovog'ingdan qor.
Takror qishlar kelganda hali
Bu bahorga bo'lasan ko'p zor.

05.03.2024

BAHORIMGA

Bola edim, qarashlarim tor,
Lekin senda fikrlar teran.
Ilk suhbatda lol qoldirganding,
Achchiq til-u nozik qalb bilan.

O'sha qalbdan yuragim tomon
Do'stlik degan ko'prik o'tkazding.
Butun boshli begona davra
Ichra o'zing mehr tutqazding.

Sen hayotim mo'jizasisan,
Yaratganning bir inoyati.
Bahor bo'ldi umrimning sen-la
Birga o'tgan butun hayoti.

07.03.2024

MUNDARIJA

BAXT MANZILI	3
“Daryo kabi uyg‘oq o‘turman...”	4
BIZ.....	5
“Olis manzil sari qo‘yapman qadam...”	6
OSMON – yetolmagan makonim o‘sha...”	7
“Novdalarni bezab qorparcha...”	8
“Bu zulmatlar tarqalib bir kun...”	9
“Ming tavba qilsa ham ojiz bandaman...” ...	10
“Qara, kuzning ma'yus ko‘zlari...”	11
“Ko‘kka boqib surasan xayol...”	12
MEN	13
“Hayot o‘zi bir o‘tkinchidir...”	14
“Agar sevish gunohdan bo‘lsa...”	15
DUNYOQARASH	16
SIZDAN O‘RGANDIM	18
HAYOT	19
QISHLOG‘IM TONGI	20
BAG‘ISHLOV	22
SHOIRGA AYTAR SO‘ZIM	23
SHE’RIMGA	24
TOPMADIM	25
KELSALAR	26
TUYUQLAR	27
USTOZ	28
MENI YO‘QLAB KELDINGMI, BAHOR?	29
ORZULARIM UMMONI	30
UMR	31
SAODATLI TUSH	32
BAXT MANZILI	34
YURAK	35

“O‘n yetti yosh sari olmoqdaman yo‘l...”	36
“Navoiy g‘azaliga nazira”	37
“Bobur ruboysiiga nazira”	38
“Bugun boshqachadir shahar shovqini”	39
“Kechirgin, Ona...”	40
“Dadajon, bu mag‘rur qizingga qara...”	42
“Yomg‘ir yog‘ayotir...”	43
MATEMATIKMAN	44
OTA	45
ONA QISHLOQ	46
“Ey majnunsifatim...”	48
“Tushun, men o‘zimga tushunmayapman...”	49
“Qismatning yozganin o‘qib borarman...”	50
“Ancha kunlar bo‘ldi...”	51
“Azizim, orzular ro‘yobi tomon...”	52
“Yangi O‘zbekiston...”	53
HAYOT	54
VA’DA	55
“Mening ertagimsan” she‘riga nazira	56
“Menda boshqachadir dunyoga qarash...”	57
“Seni sevmaslikka zarra sabab yo‘q...”	58
“O‘zgacha qismatning sohibasiman...”	59
“Ba’zan keng dalangga sig‘mayman...”	60
“Zulfiya tilidan”	61
“Meni eslamaydi, deya o‘ylama...”	62
“Teraklar shiviri xayolga tortdi...”	63
“Ko‘zlarimga uyqu kirmagan...”	64
“Seni orzu qilar tushlar bor, “Taskin”...”	65
“Sen mening bugunim...”	66
“Jism ruhning zindoni ekan...”	67
“Qara, o‘rik gullabdi qiyg‘os...”	68
BAHORIMGA	69

Mardiyeva Zarifa

Jizzax shahrida tashkil etilgan Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabida ko'plab ijodkor o'quvchilar tahsil olishadi. Zarifa Mardiyeva ham mazkur maktabning 11-sinf o'quvchisi. Qo'lingizdagi kitob uning ilk she'riy to'plami. Kitobda yosh ijodkorning qalb kechinmalari, sof insoniy tuyg'ular, mehr-muhabbat, hurmat va sadoqat singari insoniy qarashlar ohorli misralarda qalamga olingan.

Bo'lajak shoiraning keyingi ijodiy parvozлari yanada yuksak bo'lishiga, adabiyot ixlosmandlari ko'nglidan joy oladigan go'zal she'rлar yozishiga tilakdoshmiz.



ISBN: 978-9910-9069-1-6



9 789910 906916